



## O‘ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A‘ZO BO‘LISH JARAYONLARIDA BOJ TARIFINI QO‘LLASHNING AYRIM MASALALARI

**O‘tkirov Behzod Muhammadi o‘g‘li**

Bojxona instituti magistratura tinglovchisi,

e-mail: [behzodbekutkirov@gmail.com](mailto:behzodbekutkirov@gmail.com)

**Mahmudov Aminjon Azimovich**

Bojxona instituti mustaqil izlanuvchisi,

e-mail: [aminjon.mahmudov777@gmail.com](mailto:aminjon.mahmudov777@gmail.com)

*Annatsiya, Mazkur maqolada O‘zbekistonning Jahon savdo tashkiloti (JST) ga a‘zo bo‘lish jarayonlarida amalga oshirilgan ishlar, xorijiy mamlakatlarning JSTga a‘zolik tajribasi, shuningdek tashkilotga a‘zolikning mamlakat iqtisodiyotiga ta‘siri ayrim mamlakatlar misolida tadqiq qilingan.*

*Kalit so‘zlar: Xalqaro iqtisodiy integratsiya, Jahon savdo tashkiloti, tashqi savdo, boj tarifi, imtiyoz va preferensiya.*

*Annotation, This article examines the work carried out in Uzbekistan’s accession to the World Trade Organization (WTO), the experience of foreign countries in joining the WTO, as well as the impact of membership in the organization on the country’s economy using the example of some countries.*

*Keywords: International economic integration, World Trade Organization, foreign trade, customs tariff, concessions and preferences.*

**Kirish,** Jahon xo‘jaligi rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu xalqaro iqtisodiy munosabatlarning uzluksiz rivojlanib borishi hisoblanadi. Bunday rivojlanish o‘z navbatida mamlakatlar, mamlakat ittifoqlari, shuningdek alohida firma va korxonalar o‘rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarning kengayishi va tobora chuqurlashuvi bilan izohlanadi. Jahon xo‘jaligida davlatlar o‘rtasidagi tashqi savdo aloqalarini qayta tashkil etish, ayrim tarmoq va sohalarda tarkibiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish zarurati mavjud.

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyat rivojini yangi bosqichga ko‘tarish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, davlatning iqtisodiyotdagi ulushini kamaytirish va tarkibiy o‘zgartirishlarni jadallashtirishga qaratilgan ishlarni izchil davom ettirish maqsadida, “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonda belgilangan Davlat dasturining 97-maqsadiga binoan, Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish va Yevrosiyo Iqtisodiy Ittifoqi bilan integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishga doir bir qancha vazifalar belgilab berildi.<sup>1</sup>

### **Muhokama va natijalar**

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘zining 2020-yil 4-fevral kuni qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat tovarlari sifatini oshirish masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan yig‘ilishida eksport qilinayotgan mahsulotlarning JST standartlariga javob bermasligi hamda import tovarlarining kirib kelish payti ularni tekshiruvdan o‘tkazish qiyinchilik tug‘dirayotgani haqida aytib o‘tdi<sup>2</sup>. Oziq-ovqat mahsulotlarini tekshiruvdan o‘tkazish bo‘yicha

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni ( <https://lex.uz/docs/5841063>).

<sup>2</sup> <https://president.uz/>



## JSTning

775 ta standarti mavjud bo'lib, O'zbekistonda ushbu standartlarning 100 tasi joriy qilinganligi, 100 dan ortiq laboratoriyalardan atigi 10 ta laboratoriya xalqaro darajada akkreditatsiyadan o'tgani tanqid qilindi. Yuqoridagi standartlarni joriy qilinishi ham davlatimiz uchun JSTga a'zo bo'lish bosqichlarini birmuncha yengillashtiradi. JST mamlakatlar o'zaro savdo aloqalari olib boradigan va bu boradagi nizolarni hal etish imkoniyatini beruvchi global maydon hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi 1994-yildan buyon JSTga kirish uchun harakat qilib kelmoqda. 1994-yil 21-dekabr kuni JSTga qo'shilish bo'yicha maxsus ishchi guruh tuzilgan bo'lib, ushbu ishchi guruh shu kunga qadar to'qqiz marta yig'ilish o'tkazgan. Yig'ilish davomida davlatimizning JST ga a'zo bo'lish jarayonlarini 2026-yilgacha yakunlash maqsad qilib qo'yildi. Ushbu maqsad nafaqat xalqaro hamkorlarga, balki O'zbekistondagi barcha manfaatdor tomonlar va ishbilarmon doiralarga aniq xabar bo'lganligi, mamlakatimizning JST ga a'zo bo'lishi muqarrarligi, mahalliy manfaatdor tomonlarning amalga oshirilayotgan islohotlarga moslashishi va jahon savdo tizimiga integratsiyalashuv bilan birga keladigan yangi muammolarga tayyorgarlik ko'rishi lozimligi ta'kidlandi<sup>3</sup>.

O'zbekiston jami 22 ta a'zo mamlakatlar bilan ikki tomonlama muzokaralarni yakunladi. O'zbekistonda savdo rejimini JST qoidalariga muvofiqlashtirish bo'yicha qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi. 2020-yildan buyon a'zolar ko'rib chiqishi uchun taqdim etilgan va tasdiqlangan qonun hujjatlarining umumiy soni 192taga yetdi.

O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi boshqa davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni yanada yaxshilash, tovar ayirboshlash hajmini oshirish, tashqi raqobatbardoshlikni kuchaytirish, shu bilan birga bozor munosabatlariga o'tish jarayonini tezlashtirish uchun zamin yaratadi.

Ammo, tariflarning pasaytirilishi tufayli JST ga a'zo bo'lish mahalliy ishlab chiqarishning zaif tarmoqlariga salbiy ta'sir qilishi ham ehtimoldan yiroq emas. Shu o'rinda, mamlakat importini tahlil qilish va unda JST a'zolarining ulushiga alohida e'tibor qaratish lozim.

**Jadval**

### Tovarlar importining mamlakat guruhleri bo'yicha tahlili<sup>4</sup>

Davlatlar guruhi	2021-yil		2022-yil		2023-yil	
	Qiymati , mln \$	Ulushi , %	Qiymati , mln \$	Ulushi , %	Qiymati , mln \$	Ulushi , %
<b>Eng ko'p qulaylik berish rejimining boshqa a'zolari (20 ta)</b>	10 455,8	41,0	13 180,4	42,8	19 012,7	49,2
<b>YeOII mamlakatlari (5 ta)</b>	8 688,2	34,1	10 171,7	33,1	10 598,3	27,4
<b>Yevropa Ittifoqi mamlakatlari (27 ta)</b>	3 323,5	13,0	3 710,9	12,1	4 723,9	12,2
<b>JSTga a'zo bo'lmagan mamlakatlar (69 ta)</b>	1 174,2	4,6	1 646,2	5,4	1 604,7	4,2
<b>Erkin savdo zonasi rejimining boshqa a'zolari (6 ta)</b>	1 434,8	5,6	1 293,8	4,2	1 489,4	3,9
<b>JSTning qolgan a'zolari (107 ta)</b>	431,2	1,7	764,8	2,5	1 230,1	3,2
<b>Jami</b>	<b>25 507,7</b>	<b>100,0</b>	<b>30 767,8</b>	<b>100,0</b>	<b>38 659,1</b>	<b>100,0</b>

<sup>3</sup> [Uzbekistan advances WTO accession negotiations, reaffirms commitment to conclude by 2026/Article](https://www.wto.org/english/news_e/news24_e/acc_06dec24_e.htm), URL: [https://www.wto.org/english/news\\_e/news24\\_e/acc\\_06dec24\\_e.htm](https://www.wto.org/english/news_e/news24_e/acc_06dec24_e.htm).

<sup>4</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz) ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



Mazkur jadvaldan ma'lumki, JST a'zolariga nisbatan tarif stavkalarining pasaytirilishi O'zbekiston importida JSTga a'zo mamlakatlar ulushini oshiradi. JST ning 107 ta a'zo davlatlaridan tovarlar importi 2021-yilda jami importning 1,7 %ini tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 3,18 %ga yetgan. Import hajmining 61.4%i yoki 23,74 milliard AQSH dollari eng ko'p qulaylik rejimini yaratgan holda savdo-iqtisodiy hamkorlik sohasidagi bitimlar imzolangan davlatlar tashkil qiladi. Erkin savdo rejimini yaratgan holda savdo-iqtisodiy hamkorlik sohasidagi bitimlar imzolangan davlatlardan tovarlar importi 2023-yilda 12,09 milliard AQSH dollari yoki jami import hajmining 31.27 %ini tashkil etgan. Ushbu davlatlardan import qilinayotgan tovarlarga nisbatan tariflar nol stavkada qo'llaniladi<sup>5</sup>.

Respublikamizda bojxona bojlarini qo'llashda xalqaro tashkilotlar va ilg'or xorijiy davlatlar tajribalari asosida boj stavkalari isloh qilinmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tarif orqali tartibga solishda qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda import bojxona bojining o'rtacha arifmetik stavkasini o'zgarishini 2003-2024-yillarda tahlil qiladigan bo'lsak, bu davrda 15.31% dan 8,02 % ga yoki 1,9 martaga kamaygan. Import bojxona bojiga nol darajali stavkalar miqdori Yevropa Ittifoqi davlatlarida 16,65 foizni, Turkiyada 37,48 foizni, Xitoyda 7,10 foizni, Tojikistonda 4,10 foizni, Yevrosiyano iqtisodiy hamkorlik tashkiloti davlatlarida 15,81 foizni tashkil etadi. Mamlakatimizda amaldagi import bojxona boji stavkalari tarkibida bu ko'rsatkich 39,30 foizga teng.<sup>6</sup>

O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi quyidagilarni:

- iqtisodiyotni erkinlashtirish va sanoat tarmoqlari baravar rivojlanishini tartibga solish;
- narx,navoni tartibga solish va maqbul soliq tizimini yaratish;
- alohida sektorlar va ishlab chiqarishda subsidiyalarni saqlash;
- tovarlarni standartlash va sertifikatlash qilish tizimini tartibga solish;
- xorij sarmoyalari jozibadorligini oshirish;
- import va eksport boj to'lovlari tarifini tartibga solishni talab qiladi<sup>7</sup>.

Tashkilotga a'zo bo'lish mamlakat uchun ko'plab ijobiy tomonlari mavjud. Jumladan, JSTga a'zolik zahirida iqtisodiy manfaat yotadi. Ya'ni a'zo mamlakatlar o'rtasida cheklovlarisiz mahsulot ayirboshlashga erishiladi, tovar ayirboshlashning o'sishi yuqori darajali texnologiyalarning qo'llanilishi va rivojlanishiga ham zamin yaratadi.

Bundan tashqari, import tovarlari hajmining o'sishi ichki bozorda sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga yordam beradi, buning natijasida xalqning turmush darajasi yaxshilanadi, natijada insonlarga sifatli mahsulot iste'mol qilish imkoniyati yaratiladi. BMTga a'zo ko'pchilik davlatlar JSTga ham a'zo. Masalan, Rossiya Federatsiyasi 19 yillik harakatlar natijasida 2012-yilda, Qirg'iziston 1998-yilda, Tojikiston 2012-yilda, Qozog'iston esa 2015-yilda a'zolikqa qabul qilingan.

JSTga a'zolik monopol sohalarga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda ustuvor sohalar (aviaqatnovlar, temiryo'l tashuvlari va b.) boshqaruvi 30 yildan buyon monopolistlar qo'lida turganligi iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir qilib kelmoqda. JSTga a'zo bo'lish bilan ushbu monopolialarga barham berish mumkin.

JSTga a'zo bo'lishda Xitoy davlati tajribasi.

Xitoy 15 yillik muzokaralar davridan so'ng, kelishuvlar asosida 2001-yil 11-dekabrda tashkilotga 143-a'zo sifatida qo'shilgan. Biroq Xitoy hukumatiga a'zolik uchun bir qator og'ir va mashaqqatli talablarni bajarish talabi qo'yildi. Boj tariflarini pasaytirish, AQSH

<sup>5</sup> Bojxona Kodeksi, 300-modda, 3-xatboshi.

<sup>6</sup> T.Pardayev, O.Sarmanov, S.Kamolov. Globallashuv sharoitida milliy boj tarifi tizimini xalqaro talablarga unifikatsiyalash. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ([Economics and Innovative Technologies](#)) ilmiy elektron jurnali. 6/2022, noyabr-dekabr (№ 00062). -B.425-433.

<sup>7</sup> Q.Nosurullayev. Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolik O'zbekiston uchun qanchalik foydali / [Scientific Journal Impact Factor/Maqola/ Volume 1|Issue 6/108-109-b.b.](#)



kompaniyalari uchun zarur bo'lgan sanoat mahsulotlari tariflarini 25 foizdan 7 foizgacha qisqartirish, AQSH fermerlari uchun zarur bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxini 31 foizdan 14 foizgacha arzonlashtirish, bank sektori, sug'urta, telekommunikatsiya va kasbiy xizmatlar sohalaridagi qator tarmoqlarni keng miqyosda ochish, tizimli islohotlar olib borish, oshkoralik masalasida chuqur islohotlarni o'tkazish, Xitoyda faoliyat yuritayotgan xorijiy kompaniyalar faoliyatidagi to'siqlarni bartaraf etish shular jumlasidandir.<sup>8</sup>

Xitoyning Tashkilotga a'zo bo'lishi bilan bog'liq asosiy muammo bozorga kirish imkoniyati emas, balki iqtisodiy rejimning shaffofligi, huquqiy, ma'muriy va institutsional tizimni shakllantirish majburiyatlarini bajarish mexanizmi bo'lgan.

Muzokaralarning yakuniy bosqichida Xitoyga yana quyidagi vazifalar ham qo'yilgan: eksportni rejalashtirish va eksport-import rejalarini amalga oshirish siyosatini rejalashtirish tizimini bekor qilish, tashqi savdo rejimining shaffofligini ta'minlash, xorijiy ishbilarmonlarga ichki bozor xizmatlaridan foydalanishni erkinlashtirish, eksport subsidiyalarini olib tashlash, shuningdek davlat korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashdan voz kechish va faqatgina qishloq xo'jaligini himoya qilish.

Xitoy bu shartlarni qabul qilishni davr zarurati, jahon iqtisodiyoti qoidasini hurmat qilish, deb tushundi. Shunchalik murakkablik bo'lishiga qaramasdan, Xitoy hukumati JSTga a'zo bo'lishning qiyinchiliklaridan ko'ra, imkoniyatlari ko'proq bo'lishiga ishonadi.

JSTga a'zo bo'lgandan so'ng Xitoy ikki jabhada yutdi. Bulardan birinchisi JSTga a'zolik tufayli 2008-yilda boshlanib, hozirga qadar davom etayotgan Xalqaro moliyaviy inqiroz sharoitida, arzon bo'lgan Xitoy mollari uchun kvotalar olib tashlandi. Ikkinchisi, xalqaro mehnat taqsimotida arzon ishchi kuchini eksport qilishga erishildi. JSTga a'zo bo'lishning mamlakatlar iqtisodiyotiga turli xil ta'sir qilishi mumkin. Ushbu ta'sirlarni JSTga 1990-yildan keyin a'zo bo'lgan 15 ta rivojlanayotgan mamlakat Albaniya, Bahrayn, Bangladesh, Kamerun, Gruziya, Gonduras, Iordaniya, Mo'g'uliston, Nepal, Rossiya, Shiri Lanka, Turkiya, Vanuatu, Qozog'iston va Qirg'izistonning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining o'zgarishi o'rganilganda, mazkur 15 ta mamlakatdan 12 tasida eksportning, 10 tasida esa YaIMning o'sish sur'ati tezlashganligi, 12 ta mamlakatda inflyatsiyaning sekinlashganligi va 10 tasida to'g'ridan, to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ko'lami oshganligi ma'lum bo'ldi. Bangladesh, Gonduras, Turkiya va Kamerunda ko'pchilik yo'nalishlar bo'yicha ijobiy natija kuzatilgan.

### **Xulosa va takliflar**

Yuqoridagilardan shuni aytish mumkinki, O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi uzoq davom etayotgan jarayon hisoblanadi. Bunda JST qoidalariga muvofiq bo'lgan ichki bozorni notarif choralar orqali himoya qilish tizimini rivojlantirish, eksportni qo'llab-quvvatlash va subsidiyalash choralari ishlab chiqish kabi muhim vazifalar ijrosini ta'minlash talab etiladi.

Olib borilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish mamlakatimizning JSTga a'zo bo'lish jarayonlarida yuzaga kelayotgan iqtisodiy muammolarni hal qilishga yordam berishi mumkin deb hisoblaymiz:

tashqi bozorlarda erkin raqobatlasha oladigan ishlab chiqarish sohalarini tanlab, ular uchun uzoq muddatli rivojlantirish rejasini ishlab chiqish;

davlatning sanoat potensialini tiklash uchun uzoq muddatli sanoat strategiyasini ishlab chiqish va bosqichma-bosqich amalga oshirish;

korxonalarining tashqi raqobatga bardoshlilik ko'rsatkichi bo'yicha muntazam ravishda monitoring qilib borish mexanizmini ishlab chiqish;

Respublikamiz boj tarifidagi nol darajali stavkalarining ulushini 16-20 foizga tushirish.

<sup>8</sup> Q.Nosurullayev. Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolik O'zbekiston uchun qanchalik foydali / [Scientific Journal Impact Factor/Maqola/ Volume 1|Issue 6/110-111-b.b.](#)



### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni (<https://lex.uz/docs/5841063>).
2. Пардаев, Т., Сарманов, О., & Камалов, С. (2022). ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА МИЛЛИЙ БОЖ ТАРИФИ ТИЗИМИНИ ХАЛҚАРО ТАЛАБЛАРГА УНИФИКАЦИЯЛАШ. *Economics and Innovative Technologies*, 10(6), 425-433.
3. Uzbekistan advances WTO accession negotiations, reaffirms commitment to conclude by 2026/Article [https://www.wto.org/english/news\\_e/news24\\_e/acc\\_06dec24\\_e.htm](https://www.wto.org/english/news_e/news24_e/acc_06dec24_e.htm).
4. Q.Nosurullayev. JSTga a'zolik O'zbekiston uchun qanchalik foydali/ Scientific Journal Impact Factor/Maqola/ Volume 1|Issue 6/108-109-b.
5. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi. 2016-yil 20-yanvar (<https://lex.uz/docs/2876354>).
6. Nosirovich, T. P., Rixsibayevich, A. S., & Adiljonovich, S. O. (2021). Prospects for increasing the effectiveness of the application of privileges and preferences from customs duties. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(7), 69-76.
7. САРМАНОВ, О. А., & ФАРХОДОВ, Ф. Ф. БОЖХОНА ЙИҒИМЛАРИНИ ҲИСОБЛАШ ВА УНДИРИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ Тулкин Насирович ПАРДАЕВ.
8. <https://www.wto.org/>
9. <https://president.uz/>
10. <https://kun.uz/>
11. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)